



UDK:091

Feruzbek QILICHEV,
O'zbekiston Milliy universiteti falsafa doktori, PhD
E-mail: qilichevferuzbek@gmail.com

F.f.d O'.Tilovov taqrizi asosida

HOZIRGI DAVRDA DINIY EKOLOGIK QADRIYATLAR TRANSFORMATSIIYASI

Аннотация

Mazkur maqolada diniy ekologik qadriyatlar transformatsiyasi tahlil qilingan. Ekologik qadriyatlar transformatsiyasida din ijtimoiy hayotda konservativ kuch sifatida, progressiv kuch sifatida ham muayyan rol o'ynashi tabiiy ekanligi, ba'zi davrlarda diniy qarashlar va amaliyotlarning ko'pchilik shakllari o'zgarishlar yo'lida to'siq bo'lib qolganiga qaramay, diniy e'tiqodlar-qadriyatlar ko'pincha jamiyatda o'zgarishlar yaratish uchun yordam berganligi ilmiy jihatda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik qadriyat, ekologik madaniyat, diniy qadriyat, din, ekologiya, shaxs ekologik madaniyati.

TRANSFORMATION RELIGIOUS ECOLOGICAL VALUES IN THE PRESENT PERIOD

Annotation

This article analyzes the transformation of religious ecological values. In the transformation of ecological values, it is natural that religion plays a certain role in social life as a conservative force and as a progressive force. It has been scientifically analyzed that beliefs and values often help to create changes in society.

Key words: Ecological value, ecological culture, religious value, religion, ecology, personal ecological culture.

TRANSFORMATSIIYA RELIGIOZNO-EKOLOGICHESKIKH TSENNOSTEY V SOVREMENNYIY PERIOD

Аннотация

В данной статье анализируется трансформация религиозных экологических ценностей. В трансформации экологических ценностей естественно, что религия играет определенную роль в общественной жизни как консервативная сила и как прогрессивная сила. Научно проанализировано, что убеждения и ценности часто помогают создавать изменения в обществе.

Ключевые слова: Экологическая ценность, экологическая культура, религиозная ценность, религия, экология, личная экологическая культура.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmida insoniyat avvalgilardan farqli ko'rinishdagi muammolar bilan to'qnash kelgani sir emas. Endilikda ularning ta'siridan qutilish va bu borada turli yechimlar topish asrimizning eng dolzarb masalasiga aylandi. XX asrning birinchi yarmida ko'p asrlar mobaynida davom etib kelgan davlatlararo va fuqarolik urushlariga barham berib, azaliy orzu – tinchlikka erishish insoniyat uchun birlamchi maqsad hisoblangan bo'lsa, ikkinchi jahon urushidan so'ng aholi tabiiy o'sishining yuqori darajasi saqlanib qolishi, fan va texnika yutuqlaridan tor manfaatlar yo'lida foydalanish ortidan iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy muammolarni tug'ilishi bilan bir vaqtda qator mintaqalarda murakkab ekologik vaziyatning vujudga kelishi masalani yanada chigallashtirib yubordi. Buning oqibatida kishilarning yashash tarzi, sihat-salomatligi va ijtimoiy-madaniy hayotida tub o'zgarishlar kuzatila boshlandi. Xullas, sotsiologlar ta'biri bilan aytganda, insoniyat "hozir hatto, so'nggi ikki yuz yilliklar standarti bo'yicha qaralgan vaqtda ham, undan ko'ra og'irroq dramatik ijtimoiy o'zgarishlar davrini boshdan kechirmoqda[1]."

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Diniy qadriyat-larning rivojlanish dinamikasida ikki jihat-ularning mazmunan va tarkiban murakkablashuvi, yangidan-yangi qadriyatlarining vujudga kelishi –differensiasiya va integratsiya jarayonlariga moyillik ko'zga tashlanadi. Sharq jamiyatlarida binar tendensiyaning muayyan tomoniga moyillik diniy qadriyatlar taraqqiyotining barcha davrlariga xos bo'lsa ham, ammo u yoki bu davrda ulardan birida ustuvor bo'lgan va muayyan

maqsadlarga xizmat qilgan. Diniy qadriyatlarini shaxs faoliyatida ekologik qadriyatlarga ijobiy munosabatning shakllanishi, uning ta'sir imkoniyatlarini ilmiy o'rganish asosida turli diniy konfessiyalar o'rtasidagi aloqadorlik va mavjud farqlarni aniqlab, bir tizimga keltirish mumkin. Shuningdek, turli diniy ekoqadriyatlarini ekologik xavf-xatarni real idrok etish, baholash va ularning yechimi yo'llarini ifodalash imkoniyatlari jihatidan ham turkumlashirish mumkin. Masalan, diniy dogmatlarni formal mantiq qonunlariga ko'ra asoslaydigan teologiya, diniy falsafa ekologik voqelikni qandaydir quruq mushohadaviylik orqali emas, balki dunyoviy fanlarning empirik bazasiga tayangan holda yondashadi. Shu jihatdan ekoteologiya yoki din ham falsafiy tafakkurning ajralmas tarkibiy qismidir. Bunda diniy qadriyatlarining falsafiy madaniyat darajasida asoslanishi uning ta'sir samaradorligini oshirish omilidir.

Har bir diniy qadriyat ob'ektiv voqelikning muayyan in'ikosi sifatida o'zining ob'ektiv xarakterda rivojlanuvchi ichki "ekodunyo"siga ega. Shu sababli turli diniy muqaddas bitiklarda insonning tabiat boyliklarini asrash, atrof-muhitni himoya qilish lozimligi haqidagi ideallar, qadriyatlar shaxs ongini abadiy ahamiyatga ega ekologik g'oyalar, diniy "qobiq" bilan cheklanishi mumkin bo'lmagan insoniy ideallar bilan boyitadi. Demak, shaxsning tabiiy borliq haqidagi ekologik tafakkuri va faoliyatidagi qadriyaviy mo'ljallar tanlovida diniy qadriyatlar hamda ularni rasional asoslovchi diniy-falsafiy sistemalarning ma'naviy-psixologik ahamiyati va ma'rifiy roli

kattadir. Shu bilan birga diniy qadriyatlar taraqqiyotining mustaqilligi qonuniyati ham namoyon bo'ladi [2].

Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlar gumanistik roli baholaganda esa uni "ijobiy" yoki "salbiy", "primitiv" yoki "murakkab" sifatida baholash unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Bunday vaqtlarda diniy qadriyatlarining roli samarali yoki samarasiz bo'lishi mumkin. Chunki har qanday diniy qadriyatlarining funksional mazmuni ijtimoiy hayot ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqadi. Darhaqiqat, ibtidoiy insonning hayot faoliyatini tasvirlovchi toshlarga o'yib tushirilgan ekologik mazmundagi rasmlaridan boshlab hozirgi davrdagi diniy konfessiyalarning tabiatni asrash bo'yicha dolzarb muammolarni ko'tarib chiqishi va ularning ekologik harakatlar bilan birgalikdagi faoliyati, o'z navbatida, diniy qadriyatlarining shaxs ekologik madaniyati shakllanishidagi rolini real namoyon qila oladi. Zero, har qanday diniy konfessiyalar kishilarga, avvalo, qadriyatlar orqali ta'sir qilishi bilan o'z manfaatlarini yo'lida faoliyat yurgizadi.

Zamonaviy ekomadaniyatning strukturasi diniy qadriyatlar o'z pozitsiyasini saqlab kelayotganligi ekoxavfsizlik omillari va shaxs motivatsiyalaridan biridir. Shu jihatdan hozirgi davrda gumanistik kontekstda diniy qadriyatlarining rivoji uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilishi orqali shaxs ekologik madaniyati mazmunan boyiydi va chuqurlashadi.

Diniy qadriyatlar hali barqaror rivojlanmagan davrlarda ekologik tematika afsonaviy, mifologik usullarda ifodalangan. Insonning tabiat bilan munosabatini mifologik tafakkur asosida tushunish ekologik borliqni anglashning maxsus shakli hisoblanadi. Miflarda insonning tabiat kuchlari oldidagi zaifligi, oqizligi aks etib, unda shaxsning tabiatga munosabati sodda ekologik qoidalar orqali tartibga solingan.

Diniy qadriyatlarining ilk mifologik ko'rinishlari, mazmunan, amaliy-pragmatik jihatlari bilan ajralib turadi, ya'ni kundalik-maishiy hayot ehtiyojlari qondirilishiga qaratilgan. Bu dinning dastlabki shakli bo'lgan magiyada, anitmatizm va animizmda aniq ifodalangan. Masalan, qadimgi odamlar yovvoyi hayvonlarni kamon o'qi bilan otib ovlashini tasvirlash orqali o'zlarining ovda erishgan zafarini namoyish etganlar. Bu diniy obrazning sof "tashqi" mazmunini tashkil qiladi. Vaholanki, "yovvoyi-faylasuf" – shaman, kohin aynan shu orqali insonning tabiatga munosabatidagi vahshiylikni qoralayotgan bo'lishi mumkin.

Qadimgi dunyo moddiy yodgorliklari orqali dastlabki avstaropiteklarning tabiatga oqilona munosabati ruhlar, hayvonlar, o'simliklar, turli jonli va jonsiz narsalar ob'ekt qilib olinganligini, ular turli usullarda ifodalanganligini kuzatish mumkin. Garchand ibtidoiy jamiyatning qadriyaviy asoslari keyingi davrlarga nisbatan sodda, mifologik refleksiylarga qurilgan bo'lsa ham, insonning tabiatga munosabati ikkilamchi tabiatga qaratilgan madaniy tizimini yaratishgan. Diniy-mifologik qadriyatlar tarixiy transformasiyada turli vositalar yordamida (ijtimoiy xotira, rituallar, marosimlar, tasvirlar, naqshlar, an'analar) avloddan-avlodga o'tib, saqlanib va takomillashib kelgan. Ularda turli tarixiy davrlardagi ekologik bilimlar va tajriba mujassamlashgan.

Diniy ekoqadriyatlarining animistik shakllarida ham zamonaviy ekologik obrazlarning ko'p umumiy belgilari va xususiyatlari namoyon bo'lib, tabiatni muhofaza qilish faoliyatini tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish funksiyalari mavjud bo'lgan. Ibtidoiy odamlar hayotida qulay tabiiy sharoitlarni yaratish maqsadida birlashishi va ekologik xatti-harakatlarining turli diniy rituallar, marosimlarda ifodalanishi qadimgi odamlarning ichki borlig'ini o'ziga xos tarzda namoyon qilgan.

Eng muhimi ekologik voqelikni diniy qadriyatlarida ifodalashda differensiyalashish tendensiyasi kuchaydi, ya'ni

diniy qadriyatlarida ekologik tematika yetakchi mavqega ega bo'lib bormoqda. Boshqacha aytganda, diniy qadriyatlarida ekologiyalashish shaxs faoliyati ekologiyalashishi tendensiyasiga mutanosib ravishda rivojlanmoqda. Asrlar davomida aksariyat dinlarning muqaddas yozuvlari inson zotining mohiyatan bir ekanligini o'rgatib keldi. Inson zoti birligining bunday transsendental tushunilishi o'timishga oid, ammo uni hali qayta tiklash mumkin. Buning ishonchli isboti o'zaro bog'liqlikning mavjudligidir, shuningdek, axloqiy falsafa mantig'i ham buni tasdiqlaydiki, bunday tushunish xalqaro plyuralizmning realliklari bilan to'liq mos keladi.

Diniy qadriyatlarida ifodalangan ekologik obraz konkret axloqiy mazmuniga ega bo'lmasa pedagogik-didaktik ahamiyatga ega emas. Jahondagi asosiy ustuvor diniy qadriyatlarida shaxs ekologik madaniyatining o'ziga xos normativ etalonlari ishlab chiqilgan. Diniy qadriyatlarida ifodalangan shaxs ekologik sifatleri ideal xarakterda bo'lsa ham shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi texnogen asrda shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlarining zamon talablariga real javob berishi – eng muhim funksional mezonidir. Xususan, diniy ekoqadriyatlarining asosiy manbalari bo'lgan Vedalar, Tora, Tavrot, Injil, Qur'on va Hadislarda tabiatga, insonga gumanistik munosabat konkret-amaliy yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, yoga ta'limoti zamonaviy psixoterapiya vujudga kelishida qanchalik muhim rol o'ynagan kabi hadislarda ham alohida tib bobi bo'lib, unda inson salomatligini saqlashda ilmiy isbotlari topib kelinayotgan bir qator davolash usullari yoritilgan[3].

Mazkur dinlar orasida paydo bo'lishi jihatidan dastlabki yahudiylikda ekologik madaniyat borasida quyidagi ikki prinsip markaziy o'rin egallaydi: tirik mavjudotga aziyat yetkazmaslik va halok qilmaslik. Yahudiylikka ko'ra, tirik mavjudotga aziyat yetkazmaslik qoidasi insoniyatni hayvonot dunyosiga nisbatan shafqat bilan munosabatda bo'lishini ta'minlaydigan muhim prinsip hisoblanib, bu masalaning ahamiyati yuqoriligi Tavrot oyatlarida ham aks etgandir: "O'sha (Shabbat) kuni o'zlarining, o'g'illaringiz yoki qizlaringiz, qullaringiz yoki cho'rilaringiz, hayvonlaringiz, shahringizdagi musofirlar hech qanday ish qilmang" (Chiqish 20:10). Boshqa oyatda esa atrof-muhit, jumladan, hayvonot olamiga g'amxo'rlik ko'rsatishga undashdan maqsad ular odamzot uchun tirikchilik vositasi qilib berilganligi ta'kidlanadi: "O't va sabzavotni sizlarga yemish qilib berganim singari hamma tirik jonzotlarni ham sizlarga yemish qilib beraman" (Ibtido 9:3). Shuningdek, yahudiylik ta'limotiga ko'ra, atrof-muhitni muhofaza qilish borasida belgilangan ikkinchi qoida – "vayron qilmaslik" tabiiy borliq va undagi tirik mavjudotlar (o'simlik va hayvonot dunyosi, hatto, insonlar)ga nisbatan shafqatsizlar munosabatda bo'lishni ta'qiqlovchi prinsip sanaladi. Bu to'g'risida kelgan Tavrot oyatida hatto, biror shaharni uzoq vaqt qamal qilish davrida ham u yerdagi daraxtlarni vayron etishdan qaytarilib, balki, ulardan foydalanishga buyuriladi[4].

Diniy qadriyatlar avvalo ijtimoiy hodisadir va insonning psixologik-ruhiy olamini namoyon etadi.

Shuning uchun ham diniy qadriyatlar ma'naviy hayot san'ati bo'lib, shaxslararo muloqotni talab etadi va dunyoqarashda namoyon bo'ladi. Zero, insonning tabiatga nisbatan ezguligi va yovuzligini diniy qadriyatlar orqali baholanishi insonni insoniylikka, rahm-shafqatga, kamolotga tabiiy borliqni Yaratguvchining mulki sifatida asrashga da'vat etadi. Hozirgi davrda esa ushbu kompleks-sistemali xarakterdagi vazifalar samaradorligi diniy qadriyatlarining boshqa umuminsoniy qadriyatlar, xususan, demokratik tamoyillar bilan integratsiyasiga bog'liqdir.

Bugungi kunda diniy qadriyatlar mavqeyini mustahkamlaydigan muhim omillardan biri – bu diniy

ibodatlar, marosimlar, an'analar, urf-odatlar, rasm-rusmlarning ekologik jihatlarini o'rganish, ularni targ'ib etishdir.

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada katolisizm hukmronligi sharoitlarda shaxs faoliyatiga, jumladan, ekologik xatti-harakatiga muqaddas kitoblar, Papa bullalari, cherkov inkvizitsiyalari, badiiy adabiyot, san'atdan tashqari, hattoki, asosiy vazifasi sxolastikaga "dastyorlik" qilishdan iborat bo'lgan ilm-fan, xususan, falsafa orqali ham kuchli mafkuraviy ta'sir o'tkazib kelingan. Katolisizm o'z hukmronligi yo'lida intellektual sohalarining barchasidan keng foydalangan. Ammo bundan bir tomonlama salbiy xulosa ham chiqmaslik kerak.

Sivilizasiyaning hozirgi bosqichida ekologik muammolar keskinlashishi bilan dinning ma'rifiy, aksiologik funksiyasining ahamiyati oshmoqda. Masalan, Qur'oni Karimda barcha muqaddas kitoblar e'tirof etiladi, unda yahudiy va xristianlarning muqaddas kitoblari yig'indisi bo'lgan Bibliyadagi nomlar: Moisey (Muso) – 128, Avraam (Ibrohim) – 63, Iisus (Iso) – 49, Noy (Nuh) – 42, Mariya (Maryam) – 34 marta takrorlanadi. Qur'onda 3-sura "Ol-i Imron", 19-sura esa "Maryam" deb nomlanadi va 5: 46 (50) oyatda iduizmning muqaddas kitobi – Tavrot va xristianlarning muqaddas kitobi – Injil Alloh tomonidan yuborilganligi xususida so'z yuritiladi[5]. Ya'ni Qur'oni Karim oxirgi kitob sifatida nafaqat o'zidan oldingilarni tasdiqlaydi, balki ularni himoya ham qiladi. Xuddi shunday holatni, insoniyat tarixidagi birinchi din hisoblangan zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" va hind "Veda"larida ham kuzatish, ular bitta umumiy manbaga egaligi xususida xulosa kelish mumkin[6].

Umuman olganda, nafaqat jahon dinlari, balki milliy dinlarning barchasi ham o'zaro o'xshashdir. Zero, insoniyat uchun yagona maqsad komillikka intilishdir.

Umuman, diniy qadriyatlarining shaxs ekologik madaniyatiga ta'sirini shu tarzda turkumlashtirish mutlaqo shartli va nisbiy xarakterda bo'lsa ham, bir tomondan, har ikki holda ham ma'naviy madaniyatni o'rganishga ob'ekti va uslubi nuqtai nazaridan daxldordir. Shuning uchun ham diniy qadriyatlar shaxsning ekologik begonalashuvini bartaraf qilishdagi samarali vositalardan biridir.

Turli konfessiyalarda ekologik qadriyatlar turlicha ifodalinishiga kelinsa, ular o'rtasidagi farq, e'tiqodlar nuqtai nazaridan nisbiy va shartli xarakter kasb etadi.

Ekologik bilim va madaniyatni belgilovchi fazilatlar yoshlarning ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bunda asosiy urg'u o'quvchi va talabalarning o'zi yashab turgan xonadoni, mahallasi, shahriga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usini, ya'ni vatanparvarlik ruhini, tabiatga nisbatan axloqiy qadriyatlarini, tabiat uchun shaxsiy mas'uliyat hissini, unga qiziquvchanlik va uni asrab-avaylashni, teran bilimlilikni shakllantirishga qaratilgan. Bu fazilatlar o'zbek xalqining ekologik qadriyatlarining boy mazmunini o'rganish, tabiat va madaniy qadriyatlarni saqlash va e'zozlash, diniy qadriyatlarni hurmat qilish asosida kuchaytiriladi.

Xulosa. Ekologik bilim va madaniyat insonning ma'naviy va ruhiy dunyosini boyitishga va shakllantirishga imkon beruvchi yo'nalishlardan biridir. Tabiatga, o'simliklar, hayvonlar va odamga bo'lgan mehr-muhabbat o'quvchi va

yoshlar qalbida shaxsga, insonga xos bo'lgan ezgulik, mehribonlik tuyg'ularini yanada rivojlantiradi.

Yer, suv, havo, o'simlik va hayvonlarni, hayot manbalarini, yashash vositalarini ehtiyotkorona saqlash, e'zozlash ma'naviyat mezonini hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik madaniyat uchun daslabki qadam qo'yiladi va bu madaniyat stixiyali ko'rinishga ega bo'ladi hamda tabiatga bo'lgan munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bunda bolada ozodalik, atrof muhitni idroklash, qiyoslash kabi daslabki fazilatlar shakllanadi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchi yoshlar jonli va jonsiz tabiat to'g'risida daslabki bilimlarga ega bo'lish bilan bir qatorda ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga, tabiat va inson munosabatlarda oqilonalikka erishishga fundament qo'yiladi. Umumiy o'rta ta'lim bosqichida bilim oluvchi o'quvchilarga o'simlik va hayvonlarning xilma-xilligi ularning biologik funksiyalarini aniqlashga yordam beradi.. Shu bilan birga ularda ekologik madaniyatni shakllantirishga keng imkoniyatlar yaratiladi. Sayllar va hasharlarida ishtirok etish orqali ekologik fazilatlar shakllantiriladi. Bu fazilatlar asosan, axloqiy ekologik ongillik, ekologik qadriyatlarni ardoqlash va mehnatsevarlik kabilardan iborat.

O'rta maxsus va kasb-hunar ta'limida ekologik bilimlarni dialektik dunyoqarash asosida o'rganish bilan birga ularda ekologik madaniyatning asosiy fazilatlarini shakllantiriladi. Bunda, avvalo, huquqiy ekologik tarbiyaga alohida ahamiyat beriladi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining tegishli moddalaridagi atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi masalalar va davlatimizning yer, suv, havo, o'simliklar, hayvonlar va tabiat resurslarini muhofaza qilish bilan bog'liq qonunlarini o'rganish – ekologik tarbiyani to'laqonli amalga oshirishga imkon yaratadi. O'quvchilarning darsda va mustaqil ishlash jarayonida tabiat bilan bevosita mulqotda bo'lishi ularda go'zallik, mehr-muhabbat, tabiatga nisbatan mas'uliyatlilik tuyg'usining shakllanishiga yordam beradi.

Oliy ta'lim bosqichlarida ekologik muhitni yanada yaxshilashga qaratilgan texnologiyalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan global bilimlarga katta ahamiyat beriladi. Shuningdek, barqaror rivojlanish, global va hududiy-ekologik muammolarni bilish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga e'tibor qaratiladi. Noyob turlarni ko'paytirish va kelajak avlodlarga yetkazish bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy mas'uliyat, vijdonlilik, burchga sadoqat, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik kabi fazilatlar shakllanadi va ular rivojlantiriladi.

Oliy ta'limdan keyingi bosqichda uzluksiz ekologik ta'limni yangi metod va ishlanmalar bilan ta'minlashga, global, hududiy va mahalliy muammolar to'g'risida haqqoniy ma'lumotlar to'plash, atrof-muhit muhofazasini tashkil qilish, ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq fazilatlar e'tibor qaratiladi.

Taklif etilayotgan fazilatlarini shakllantirish bosqichlari va ularni rivojlantirishning asosiy xususiyati zamonaviy shaxs ekologik madaniyat va dunyoqarashini tarbiyalashdan iboratdir.

ADABIYOTLAR

1. Giddens E. Sotsiologiya: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma /Tarj. N. Mamatov va J.Begmatov. – T.: Sharq, 2002. – 847 b.
2. Фалсафа. Қомусий луғат. – Б. 126.
3. Абу Абдуллох Муҳаммад Ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти. – Б. 14-38
4. Deep ecology and world religions : new essays on sacred ground / Edited by David Landis Barnhill and Roger S. Gottlieb. – N.Y.: State University of New York, 2001. – 291 p.
5. Курьони Карим. – Тошкент: Чўлпон, 1992. – 544 б.
6. Бойс М. Зароастрийцы: верования и обычаи. – М.: Наука, 1989; Исхаков В.И.,
7. Исхакова Т.Н. Древо мудрости и здоровья. – Тошкент: Фан, 1991. – 143 с. – С. 144.